
Maktabga quyosh paneli o'rnatildi

Bugungi kunda mamlakatimizda energiya tejamkorligiga erishish, qayta tiklanuvchi, muqobil energiya manbalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qo'shtepa tumanida korxonalar va tashkilotlarni uzluksiz energiya bilan ta'minlash maqsadida binolarga quyosh panellari o'rnatilmoqda.

Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabiga ham umumiy quvvati 10 kVt bo'lgan quyosh paneli o'rnatildi. Qayd etilishicha, mazkur quyosh panellari ta'lim muassasalarida energiya barqarorligini ta'minlashga yordam bermoqda.



